XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - noyabr VI-83-106-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4845-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli Qaroriga asosan Toshkent viloyati hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun tariflarni tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4845-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli Qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat xususiy sheriklik loyihasi ishtirokchilari bo‘lgan, “Angren Bunyod

Fayz” MCHJ, “Rahnamo Servis” MCHJ, “Zangiota obodon” MCHJ, “Zero-Waste” MCHJ hamda “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJ tomonidan Toshkent viloyati hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun ishlab chiqilgan tariflar **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

Bunda, Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tomonidan 2023-yilning 31-mart kuni “Zangiota obodon” MCHJga berilgan 01-20/27-05-32/356-sonli xulosasi, 2023-yilning 17-aprel kuni “Zero-waste” MCHJga berilgan 01-20/27-06-38/548-sonli xulosasi, 2023-yilning 17-aprel kuni “Angren Bunyod Fayz” MCHJga berilgan 01-20/27-06-38/549-sonli xulosasi, 2023-yil 17-aprel kuni “Rahnamo servis” MCHJga berilgan 01-20/27-06-38/550-sonli xulosasi, 2023-yilning 26-may kuni “Ohangaron Sanitariya Tozalash” MCHJga berilgan 01-20/27-05-37/925-sonli xulosalari inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eralieva), “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalariga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari 2023-yilning 1-dekabr kunidan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

4. “Angren Bunyod Fayz” MCHJ, “Rahnamo Servis” MCHJ, “Zangiota obodon” MCHJ, “Zero-Waste” MCHJ hamda “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJlar va shahar va tuman hokimliklari tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlarining yangilangan tariflari 2023-yil 1-dekabrdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallalarda targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilsin.

5. Viloyat hokimligi shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha kotibiyati mudiri M.Xudoyqulov ikki kun muddatda ushbu qaror o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangandan so‘ng, viloyat hokimining qaror loyihasini ishlab chiqib, tasdiqqa kiritsin.

6. Bugungi kunda viloyat hududlarida faoliyat yuritayotgan sanitar tozalash korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarini Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari tomonidan o‘zlari saylangan okruglarida ishchi guruhi tuzgan holda o‘rganib chiqib, o‘rganish natijalari yuzasidan Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritish choralari ko‘rilsin.

7. Yangiyo‘l shahar hokimligi (Dilshod Sultonov) “Zangiota obodon” MCHJ tomonidan sanitar tozalash xizmat ko‘rsatish faoliyati qoniqarsiz ekanligi sababli 2024-yil 1-yanvardan boshlab o‘rnatilgan tartibda Yangiyo‘l shahriga faoliyat

ko‘satish ishlarini tugatish choralarini ko‘rish;

Shuningdek, sohada tajribaga ega sanitar tozalash xizmatlarini amalga oshirish uchun yetarli texnikalari mavjud korxonani jalb etish tavsiya etilsin.

8. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur qaror bilan belgilangan tariflar sanitar tozalash korxonalar faoliyati tugatilganda,uning vazifasini bajaruvchi korxonalarda saqlab qolinadi *(keyingi tarif o‘zgargunga qadar).*

9. Viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barhayot Meliyev joriy yilning noyabr-dekabr oylari davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan sanitar tozalash korxonalarning ish sifatini baholash oyligini e’lon qilish yuzasidan tegishli hujjatlarni tayyorlasin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov, viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Abdurasul Abdullayev hamda viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barhayot Meliyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2023-yil 13-noyabrdagi
VI-83-106-10-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflar)

T.r.	Tashkilot nomi	Xizmat turi	Xizmat ko‘rsatiluvchi obyekt	O‘lchov birligi	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
1	"Angren Bunyod Fayz" MCHJ	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	4 400,0	4 400,0
			Yuridik shaxslar uchun	1 m3	61 000,0	68 320,0
2	"Rahnamo servis" MCHJ	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	4 400,0	4 400,0
			Yuridik shaxslar uchun	1 m3	61 000,0	68 320,0
3	"Zangiota obodon" MCHJ	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	4 400,0	4 400,0
			Yuridik shaxslar uchun	1 m3	61 000,0	68 320,0
4	"Zero-waste" MCHJ	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	4 400,0	4 400,0
			Yuridik shaxslar uchun	1 m3	61 000,0	68 320,0
5	"Ohangaron sanitariya tozalash" MCHJ	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib ketish xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	4 400,0	4 400,0
			Yuridik shaxslar uchun	1 m3	61 000,0	68 320,0